

O‘ZBEK VA JAHON ADABIYOTIDA “ADASHGAN ODAM” OBRAZINING BADIY TALQINI

Xo‘janova Nasiba Choriyevna

Termiz davlat pedagogika instituti O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada adabiyotda inson konsepsiyasi, xususan, “adashgan odam” obrazi uni, hozirgi globallashuv davrda insonning ma’naviy olamini tasvirlash kabi masalalar qalamga olingan.

Kalit so‘z: Inson, adashgan odam, jamiyat, globallashuv, dunyo adabiyotshunosligi, zamonaviy dunyo

Jahon adabiyotshunosligida “adashgan odam” qiyofasini tasvirlash, bugungi kunda badiiy adabiyotda insonning ichki va tashqi olamini, umuman olganda, mukammal qiyofasini o‘rganishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Dunyo adabiyotshunosligida “adashgan odam” obrazi konsepsiyasining tadqiqi ancha avval boshlangan bo‘lib, bu borada muayyan yutuqlar qo‘lga kiritilgan. Xususan, globallashuv, axborot texnologiyalari ustuvorlik qilayotgan hozirgi sharoitdagi insonning ma’naviy olami, shaxs erki va huquqi borasida ro‘y berayotgan ijobiy hamda salbiy o‘zgarishlarni ilmiy jihatdan chuqur o‘rganilishi va olingan natijalarni tadqiq etish shu kunning g‘oyat dolzarb mavzusi hisoblanadi. Jahon adabiyotshunosligida “adashgan odam” obrazi konsepsiyasiga oid qarashlar turli aspektlarda, xususan, ijtimoiy-falsafiy, psixologik, diniy nuqtai nazardan tadqiq etib kelinyapti. Binobarin, jahon adabiyotshunosligining tarkibiy qismi sifatida o‘zbek adabiyotshunosligida ham bu borada birmuncha ishlar amalga oshirilgan. Ayni chog‘da jadallashib borayotgan ijtimoiy taraqqiyot adabiyotshunoslik oldiga ham yangidan - yangi vazifalar qo‘ymoqdaki, bu borada hozirgi o‘zbek nasrida “adashgan odam obrazi” konsepsiyasi tadqiqi yanada dolzarblik kasb etmoqda.

O‘zbek adabiyotshunosligida zamonaviy shaxs va uning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, madaniy qarashlarini tadqiq etishga ayniqsa, mustaqillik yillarida yangicha tamoyillarga tayanib e’tibor berila boshlandi. Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar, avvalo, inson ruhi, dunyoqarashi, intilishlarini milliy o‘ziga xoslikni saqlagan holda umuminsoniy tamoyillar asosida shakllantirishga qaratilgan. So‘nggi yillarda adabiy qahramon va uning timsolida inson konsepsiyasining badiiy ifodalanishi o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘lmoqda. Ijtimoiy ong shakli sifatida o‘zida xalq o‘tmishi, buguni va kelajagini aks ettiradigan o‘zbek adabiyoti, xususan, o‘zbek nasrida yuz berayotgan evrilishlarni ilmiy jihatdan asoslash, obraz va uning tabiatini ochib berish, badiiy ijod konsepsiyasining yangilanish manbalari va omillarini aniqlash

shu orqali uning yaqin kelajakdagi rivojlanish yo'lini belgilash o'zbek adabiyotshunosligining muhim vazifalari tarkibiga kiradi. «Nega deganda, adabiyot va san'atga, madaniyatga e'tibor – bu avvalo xalqimizga e'tibor, kelajagimizga e'tibor ekanini, buyuk shoirimiz Cho'lpon aytganidek, “adabiyot, yashasa millat yashar”. Binobarin, XX asr oxiri, XXI asr boshlaridagi o'zbek jamiyatining ijtimoiy-falsafiy, maishiy, madaniy hayotida shakllangan odam o'zigacha bo'lgan ajdodlaridan tubdan farq qiladi.

O'zbek badiiy-estetik tafakkurida “adashgan odam” obrazi konseptsiasining taraqqiyot yo'li o'zbek xalq og'zaki ijodi, mumtoz Sharq adabiyoti, G'arb adabiyoti va yozuvchilarining badiiy-estetik fikrlashlari misolida tizimlashtirildi; zamonaviy o'zbek romanchiligida “adashgan odam” obrazi konseptsiasini sobiq tuzum davridagi inson konseptsiasini, xususan, “salbiy qahramon” qiyofasida bir yoqlama yaratilgan, so'ngra bu yo'l yangicha tus ola boshlagan; yozuvchilar badiiy nutq va uning turli ko'rinishlari yordamida o'tish davrida jamiyatimizda yuz berayotgan evrilishlar, insonlarning badiiy-estetik idealidagi o'zgarishlarni to'g'ri va xolis baholanganligi ochib berish ehtiyoji yuzaga keldi.

Zamonaviy dunyoda insoniyat oldida turgan eng katta muammo - bu globallashuv jarayonida kosmosdagi yagona ongli mavjudot o'laroq har tomonlama yetuk, barkamol insonni tarbiyalash, olam va odam munosabatlarining o'ziga xos qirralarini kashf etib borishdir. Shunisi aniqki, muammo serqirra, murakkab bo'lib, uning yechimi ham turlicha bo'ladi. Avvalo shuni ta'kidlash kerakki, “adashgan odam” iborasi anglatgan tushuncha keng qamrovli hisoblanadi.

Adabiyotshunoslikda insonni tadqiq etish fanning bosh xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Bu esa, avvalo, insonning qarashlari, inson haqidagi badiiy-estetik tushunchalarni o'rganishni talab qiladi. Har bir davrda, har bir jamiyatda inson va uning turli obrazlarini badiiy aks ettirish asosida jamiyat kishilarining dunyoqarashi ifodalangan. Umuman olganda, badiiy asardagi inson va uning har bir ijtimoiy davrdagi yangicha qiyofasi, yangicha qarashlarini aks ettirishning tarixiy asoslari uzoq tarixga borib taqaladi. Masalan, Abu Nasr Farobiy o'zining “Fozil odamlar shahri” asarida yangi jamiyat va inson konseptsiasini batafsil bayon qilib bergan.

Shu bilan birgalikda, Sharq mumtoz adabiyotida tasavvuf falsafasi ta'sirida komil inson konseptsiasini ishlab chiqilgan bo'lib, u bir necha asrlar davomida adabiyotimizda yetakchi konseptsia sifatida e'tirof etilgan. Mazkur konseptsia o'zining nazariy va amaliy ahamiyati bilan shu qadar dolzarbki, bugungi kunda ham uning asosiy jihatlariga e'tibor qaratiladi. Sharq she'riyatining yetuk vakili Hofiz Sheroziy XIV asrdayoq Chin kishi ko'zg'a chalinmas, olam ichra istama, O'zga odam, yangi olam qaytadan tuzmak kerak” deya inson konseptsiasiga o'z davrida katta ehtiyoj bo'lganligini badiiy ifodalab ketgan. Alisher Navoiy asarlarida ham inson konseptsiasini ilgari surilgan.

Adabiyotda yaratilayotgan har bir obraz yangi zamon, yangi davr kishilarining o'ziga xos ichki va tashqi olamini ifodalash bilan yangi inson konseptsiyasini yuzaga keltiradi. Masalan, XX asr boshlarida jadid adabiyoti vakillari – M. Behbudiy (“Padarkush”), Abdulla Qodiriy (“O'tkan kunlar”), Cho'lpon (“Kecha va kunduz”) asarlarida o'z davrining yangicha qarashlarini, inson konseptsiyasida ma'rifatparvarlik g'oyalarini ustun qo'yishgan bo'lsa, asrning so'nggi o'n yilligidan boshlab, dastlab eski davrdagi obrazlarga qarama-qarshi obrazlar, keyinchalik esa tabiiy-ijtimoiy taraqqiyot zaminidagi inson obrazi yaratildi. U. Hamdam “Yangilanish ehtiyoji” to'plamida inson va uning ruhiyatidagi o'zgarishlarning ijtimoiy asosini ochib bergan bo'lsa, P. Qodirov mustaqillik yillarida adabiyotimizda ko'p tasvirlangan ma'nisizlik, odamni bema'ni, turli an'analarga zid tasvirlashga qarshi fikrlar bildiradi. To'g'ri, bu yerda P. Qodirov modernizm va uning ma'naviyatga daxli haqida so'z yuritadi. Biroq unda bugungi adabiy jarayonning dolzarb mavzusi bo'lgan inson qiyofasini yaratish muammosiga yechim izladi. Lekin adabiyotda inson konseptsiyasi batamom oxiriga yetgan, mukammal bir shaklda ishlab chiqilgan g'oyalar, qarashlar tizimi deyish ham to'g'ri emas. Hali adabiyotshunoslarimiz oldida uni takomillashtirish muammosi ham turibdi. Inson konseptsiyasi qadimgi yozma manbalarda diniy-aqidaviy tushunchalar bilan qorishiq holda kelgan, ularda hamma narsa yagona Yaratganga bog'langan. Islom davrida o'zbek adabiyotida inson konseptsiyasi komil inson tushunchasi asosida shakllandi va rivoj topdi. XIX asr oxiri XX asr boshlarida boshlangan yangicha qarash va xalq hayotidagi o'zgarishlar badiiy adabiyotdagi inson va uning tasviri ham yangicha bo'lishiga sabab bo'ldi. Endi odam avvalgidek o'ta subektiv yoki hammasini Yaratgandan kutish kerak degan aqidadagi kishi emas, balki ijtimoiylashgan, o'z muammosi va qiziqishlariga javob izlashga urinayotgan odam sifatida bo'y ko'rsata boshladi. XX asrning 20-yillaridan mustaqillikkacha bo'lgan davrda esa odam yagona mafkuraga asoslangan jamiyatning bir murvati sifatida namoyon bo'ldi.

Jahon adabiyotida ham “adashgan odam” obrazi konseptsiyasi juda yaxshi o'rganilgan. Ayniqsa, rus va ingliz adabiyotida bunday obrazlarni ko'p uchratamiz. Bizga ma'lumki, realistik asarlarda insonning ichki dunyosi, ruhiyati yaxshiroq ochiladi. Har bir badiiy asar tasvirlangan hayot ustidan, har bir to'laqonli obraz - o'z ob'ekti ustidan chiqarilgan hukmdir, ammo realistik asarning boshqalardan farqi shundaki, u hukm o'rniga kitobxonga tirik insonning o'zini taqdim etadi. O'zbek adabiyoti taraqqiyotining hozirgi bosqichida, xususan, Gabriel Markes, Jeyms Joys singari so'z ustalarining ta'siri kuchli bo'ldi. Jahon modern adabiyoti namoyondalari, chunonchi, yapon Y. Kavabata, avstriyalik F. Kafka, argentinalik X. Kortasar, amerikalik T. Vulf, fransuz A. Kamyu, meksikalik L. Borxes kabi yozuvchilar ijodi bugun o'zbek adabiyotiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shuningdek, Lev Tolstoy, Feodor Dostoevskiy, Jek London, Albert Kamyu asarlarida o'z davriga moslasha olmagan, qaysidir ma'noda “adashgan odam” lar obrazini ko'rishimiz mumkin. XIX asrning

oxiri XX asrning boshlarida yashagan amerikalik yozuvchi Jek London asarlarining deyarli barchasi o'zbek tiliga tarjima qilingan. Londonning ijodida Gerbert Spenser, Fridrix Nitsshe falsafiy ta'limotlarining ta'siri seziladi. "Martin Eden" roman-biografiyasida bosh qahramonning paymonasi to'lgan chog'da ham "yashashga ishtiyoqi"ni aks ettirgan. Uning individualizm ta'sirida yozilgan mazkur romanida g'arbcha "barkamol inson", ya'ni "superman" nazariyasi ham ilgari surilgan. Jek London faqat Martin yashagan jamiyatda emas, u yoki bu darajada umuman insonlik jamiyatlariga xos bo'lgan hurfikrlilikni, o'ziga xoslikni, yangilikni sig'dira olmaslik psixologiyasini fosh etadi. Yozuvchi orzulari amalga oshsa-da, ma'naviy tanazzulga uchragan is'tedod fojiasini qalamga olgan. Biz bunday holatni Dostoevskiy "Telba" sidagi knyaz Mishkin, "Jinoyat va jazo" sidagi Rodian Romanovich Raskalnikovi, Tolstoy "Anna Karenina" sidagi Annalarni keltirishimiz mumkin. Tragik pafos ustivor bo'lgan romanlarda insoniylikka zid bo'lgan ommaviy psixologiyasiga qarshi turgan shaxsning hayoti qalamga olinadi. Bunday asarlarda tragik pafos o'zida olijanob insoniy, ko'pincha hamisha ham zaminiy hayotga, oddiy turmush ravishiga, hech bo'lmaganda o'sha tarixiy-maishiy sharoitiga to'g'ri kelavermaydigan yuksak ideallarni mujassamlashtirgan bosh qahramon bilan intilishlari real ijtimoiy voqelik bilan chegaralangan insonlar o'rtasida konfliktlar kelib chiqadi

Xulosa qilib aytganda, bugungi globallashuv davrida inson, uning ichki dunyosini tasvirlash muhim. Chunki shaxs, ma'naviyat va jamiyat tushunchalari "adashgan odam" konseptsiyasining o'zak masalalari sifatida eski va yangi tuzumdagi xarakterli odamlar hayotini taqqoslash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G'ofurov I. Tanlangan asarlar."Sharq" nashriyot-matba aksiyadorlik kompaniyasi.Bosh tahririyati,Toshkent-2017.
2. Gegel. Estetika. Birinchi jild. Rus tilidan M. Abdullayev tarjimasini. -Farg'ona.2011.
3. Hamdamov U. Bizdan rozi bo'ling ota. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2022.
4. Hamdamov U. Muvozanat. Toshkent. Sharq. 2007.
5. Hamdamov U. Vatan haqida qo'shiq. Maqolalar va davra suhbatlari. Toshkent.Akademnashr.2014.